

VATANGA CHEKSIZ SADOQAT BILAN XIZMAT QILADIGAN TIBBIYOT XODIMLARINING MEHNATI MUNOSIB E‘TIROF ETILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-noyabr kuni Toshkent davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurib, mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, tibbiyot muassasalarida xizmatlar sifatini oshirish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi.



So‘nggi yillarda tibbiyot sohasining o‘ziga 230 trillion so‘m yo‘natirildi. Buning hisobiga joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushdi, 1 ming 244 tasi rekonstruksiya qilinib, jihozlandi.

Tibbiyotdagi bu o‘zgarishlarni millionlab odamlar o‘z hayotida his etmoqda, xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimiz tibbiyotida ilg‘or texnologiyalar joriy etilib, ta‘lim jarayonlariga ham keng tatbiq qilinmoqda. Xususan, uchta oliy ta‘lim muassasasi negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Sakkizta tibbiyot oliy ta‘lim muassasasi xalqaro

akkreditatsiyadan o‘tdi. Bu sohada zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash imkoniyatlari yanada kengaydi.

Toshkent davlat tibbiyot universitetida infratuzilma yaxshilanishi natijasida ta‘lim

oluvchilar soni 29 ming 864 nafarga yetdi. O‘quv jarayonlari eng zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarildi, raqamlashtirish faol davom etmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijalari

haqida axborot berildi. Mamlakat bo‘ylab davlat tibbiyot muassasalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya jihozlari bilan ta‘minlandi, yagona raqamli infratuzilma shakllantirildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FAOLLARI VA A‘ZOLARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Mamlakatimizdagi eng ommaviy fuqarolik instituti a‘zolari bo‘lgan siz, azizlarni 11-noyabr — Kasaba uyushmalari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zining yuksak hurmatim va ezu tilaklarimni izhor etaman.

Hech shubhasiz, ushbu bayramning yurtimizda O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi keng nishonlanayotgan kunlarda o‘tayotgani uning fayzi va shukuhini yanada oshirmoqda.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, Yangi O‘zbekiston — avvalo, inson hayoti, uning salomatligi, huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini qonun asosida ishonchli himoya qilindigan davlat degani.

Shu bois, o‘z saflarida sakkiz millionga yaqin a‘zoni birlashtirgan kasaba uyushmalarining mehnat sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish, adolat va tenglik tamoyillarini ta‘minlash borasidagi bir asrdan ziyod tajriba maktabi mamlakatimizda yangi jamiyat, yangi davlat barpo etishda biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Bu haqiqatni chuqur tushungan kasaba uyushmalari faollari ijtimoiy sohadagi dasturlarimizni amalga oshirish, ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash, yoshlar, muhtaram keksalarimiz, aziz ayollarimiz manfaatlarini

himoya qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatib kelmog‘da.

Faqat so‘nggi 5 yilda sizlarning sa‘y-harakatlaringiz bilan qariyb 500 ming nafar fuqaroning huquqlari tiklangani, korxona va muassasalarda 20 mingga yaqin jamoatchilik nazorati va gender tenglikka oid audit tadbirlari o‘tkazilgani, mehnat muhofazasi yuzasidan 21 mingdan ortiq kamchilik bartaraf etilgani, salkam 1 million xodim va ularning oila a‘zolari, 1 ming 200 nafar urush va mehnat fronti faxriylari sanatoriyalarda sog‘lomlashtirilgani, 800 ming nafardan ziyod bolalar uchun yozgi dam olish imkoniyatlari yaratilgani diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz kasaba uyushmalarining xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilot va xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanib borayotgani, Federatsiyamiz o‘nga yaqin xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a‘zo bo‘lgani ham uning keng faoliyatidan dalolat beradi.

Hurmatli do‘stlar!

Yaqinda sizlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan, harakat tarixiga yorqin sahifa bo‘lib kiradigan uchrashuvda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, uning tarmoqlar va joylardagi bo‘limlari faoliyatini atroficha tahlil etib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab oldik.

Ana shu uchrashuvda sizlarning ko‘pgina sohalarida ijtimoiy sheriklikni kengaytirish,

ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha korxona va tashkilotlarda xodimlar, ayniqsa, norasmiy tarzda band bo‘lgan fuqarolar, xotin-qizlar va yoshlarning kasb va mehnatga oid huquqlarini ta‘minlash tizimini kuchaytirish, umuman, norasmiy bandlikka chek qo‘yish bo‘yicha tashabbuslaringiz bilan tanishib, soha xodimlari butun xalqimiz qatori o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘yib yashayotganiga yana bir bor amin bo‘ldim.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarga to‘la bo‘lgan hozirgi murakkab zamonda bunday keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirish albatta oson emas.

Buning uchun, avvalo, “yashil iqtisodiyot” va sun’iy intellekt jadal rivojlanayotgan davrda mehnat bozorida yangicha munosabatlar shakllanayotgani, o‘nlab kasblar bo‘yicha platformali bandlik yo‘lga qo‘yilayotganini hisobga olib, mehnat huquqlarini ta‘minlash, hayot va xavfsizlikni sug‘urtalashga doir huquqiy normalarni qonunchiligimizda aniq belgilab qo‘yishimiz, shu asosda yangicha ish tizimiga o‘tishimiz zarur.

Xalqaro mehnat standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish, mamlakatimizning 2026-2030-yillar uchun mo‘ljallangan Munosib mehnat

bo‘yicha dasturini ishlab chiqish va kasaba uyushmalari faoliyatining kelgusi besh yillik strategik yo‘nalishlarini belgilab olish ham dolzarb masaladir.

Ana shu vazifalarni samarali ado etishda o‘z hayotini inson manfaatlarini himoya qilishdek ezu ishga bag‘ishlagan, sohada ko‘p yillardan buyon samarali xizmat qilib kelayotgan O‘zbekiston kasaba uyushmalarining barcha jonkuyar faollari va a‘zolari boy bilim va tajribasini ishga solib, fidokorona mehnat qiladilar deb ishonaman.

O‘z navbatida, biz hozirgi o‘ta muhim taraqqiyot bosqichida yurtimizda mehnat munosabatlarini takomillashtirishda kasaba uyushmalarining davlat idoralari bilan yanada yaqin hamkorlikda ish olib borishlari uchun qo‘shimcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berishga tayyormiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Sizlarni mamlakatimiz kasaba uyushmalarining qutlug‘ ayyomlari bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga yitish-salomatlilik, sharafli faoliyatingizda ulkan yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI HARAKATINING 120 YILLIGI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda kasaba uyushmalari tizimini ilg‘or xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish va yangi bosqichga ko‘tarish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi ko‘p yillik samarali xizmati, sohada islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ishchi-xodimlarning mehnat qonunchiligiga doir huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ustuvor vazifa va dasturlar ijrosini ta‘minlashga qo‘shayotgan munosib hisssasi, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash yo‘lidagi ibratli faoliyati

hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Fayziyeva Sayyora Mavlyanovna — O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya-sining Toshkent viloyati Kengashi raisi

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Sabirov Kutlimurat — O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi

Davomi 2-betda

ISLOMOBODDA O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING ISLOHOTLARIGA BAG‘ISHLANGAN KITOB TAQDIMOTI BO‘LIB O‘TDI

O‘zbekiston elchixonasi Islomobod Strategik tadqiqotlar instituti bilan hamkorlikda pokistonlik yetakchi ekspert, “Janubiy Osiyo tadqiqotlari va xalqaro munosabatlar” tahlil markazi ijrochi direktori Mehmod ul-Hasan Xonning “Shavkat Mirziyoyev: islohotlar va mintaqaviy integratsiyaning buyuk yetakchisi” kitobining taqdimot marosimini o‘tkazdi.

Marosimning asosiy mehmoni Pokiston milliy meros va madaniyat vaziri Avrangzeb Xon Khichi bo‘ldi. Tadbirda vazirlik va idoralar rahbarlari, parlament a‘zolari, diplomatik korpus vakillari, biznes va ilm-fan sohalari mutaxassislari, OAV hamda Islomobod va uning atrofida yashovchi vatandoshlar ishtirok etdi. Taqdimot ikki davlat madhiyalarini kuylash va Prezident Shavkat Mirziyoyev

faoliyatiga bag‘ishlangan hujjatli film namoyishi bilan boshlandi.

Taqdimotni Islomobod Strategik tadqiqotlar instituti direktori Sohaid Mahmud ochib berdi. U ushbu akademik marosim institut binosida tashkil etilganidan mamnun ekanini, bu borgan sari dinamik tus olayotgan ikki tomonlama jadal hamkorlik ruhiga mos kelishini qayd etdi.

Davomi 2-betda

11-noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

KASABA UYUSHMALARI FAXRIYLARI VA FAOLLARI TAQDIRLANDI

Poytaxtimizda 11-noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan kasaba uyushma faxriylari bilan uchrashuv hamda mazkur tizimda o‘tkazilgan turli ijtimoiy loyiha va tanlovlar g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Q.Rafiqov ishtirokchilarni bayram bilan quatladi.

Tadbirda ta’kidlanganidek, mamlakatimizda kasaba uyushmalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yurtimizdagi eng yirik jamoat tashkiloti bo‘lgan kasaba uyushmalari va imkoniyatdan samarali foydalanib, islohotlarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy muloqot tamoyillari asosida mehnat ahlining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat huquqlarini himoyalash bilan birga aholi farovonligini oshirish, bandlikni ta‘minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish yo‘nalishlarida ham tizimli ishlar qilinmoqda.

Davomi 3-betda

ARMON-U YOLG‘ON, ZAMON VA INSON...

Aytishlaricha, yuz yoshdan keyin inson tanasi o‘zini qayta tiklashni boshlaydi. Bunga misol tariqasida uzoq umr ko‘rgan bobo-momolarimizning yuz yoshdan keyin yangi tishlari chiqa boshlashini keltirish mumkin.

Ha, nafaqat inson tanasi, ruhiyati, balki davlat va jamiyat, turli soha va tarmoqlar ham ko‘p yillik turg‘un holatidan so‘ng qayta jonlanish, yangidan rivojlanish davrini boshdan o‘tkazishi mumkin. Bunga “qayta tug‘ilish” deb ta’rif bersa bo‘ladi.

120 yillik tarixga ega O‘zbekiston kasaba uyushmalari tashkiloti ham bugun taraqqiyotining yangi bosqichini boshdan o‘tkazmoqda. Keyingi 8-9 yil davomida tashkilot faoliyatida tub islohotlar kechib, tom ma’noda o‘zining vazifasi hisoblangan inson qadrlari ulug‘lash, ishchilar manfaatlari, haq-huquqlarini himoya qilish, mehnatkashlarning maroqli hordiq chiqarishini tashkil etish

vazifalarini samarali bajaruvchi tuzilmaga aylandi.

Davlatimiz rahbari taklifiga ko‘ra, 2020-yil 23-noyabrda tegishli qonun hujjatiga binoan mamlakatimizda 11-noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni deb e’lon qilindi. Ushbu sanani majoziy ma’noda yangi O‘zbekistonning yangi kasaba uyushmalari tavallud kuni deyish mumkin. 2019-yilda qabul qilingan “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonun hamda 2023-yilda kuchga kirgan yangilangan “Mehnat kodeksi” kabi hujjatlar tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishda qo‘l kelmog‘da.

Davomi 3-betda



NIGOH

2025-yil 11-noyabr, 232-son

5



Millatlararo totuvlik



UNESCO Bosh konferensiyasining 1995-yil 16-noyabrdagi sessiyasida qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi dunyoda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlash, teng huquqlilik hamda o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo'liga muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

UMUMMILLIY BIRDAMLIK

10-15-NOYABR KUNLARI MAMLAKATIMIZ BO'YLAB

“BAG'RIKENGLIK HAFTALIGI” O'TKAZILMOQDA

“

Mustaqillik monumenti yurtimiz ozodligi va barqarorligi ramzidir. Unda xalqimizning ko'p asrlik davlatchilik tarixi, buyuk alloma va jahongir bobolar siymosi aks etgan. Monumentning eng yuqori qismida Humo qushi tasvirlangan.

O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi hamda Din ishlari bo'yicha qo'mita rahbariyati va xodimlari, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faollari, diniy konfessiya vakillari, OAV xodimlari hamda keng jamoatchilik ishtirok etgan bag'rikenglik marshidan so'ng monumnt poyiga gullar qo'yildi. Shundan so'ng “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida turli millat va din vakillari ishtirokida “Yangi O'zbekiston” bog'ida ko'chat ekish marosimi bo'ldi. Marosimda turli millat va din vakillari

alloma va mutafakkirlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish bo'yicha puxta o'ylangan izchil islohotlar amalga oshirilmogda, — dedi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining birinchi o'rinbosari D.Maxsudov. — Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv yashab, emin-erkin o'z ibodatini ado etmoqda. Hozir mamlakatimizda 2373 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Shundan 2174 tasi islomiy va 199 tasi noislomiy diniy tashkilotdir. So'nggi sakkiz yilda respublika bo'yicha jami 134 ta diniy tashkilot, jumladan, 3 ta oliy va 1 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, 105 ta masjid hamda 25 ta turli konfessiyaga taalluqli noislomiy diniy tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

O'tgan qisqa muddatda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termizi, Bahouddin Naqshband xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi tashkil etildi. Ushbu muassasalar “Jaholatga qarshi ma'rifat” ezu umuminsoniy g'oyasi asosida faoliyat yuritmoqda.



birgalikda yaxshi niyat bilan chinor ko'chatlarini ekdi.

Xalqaro press-klubning “O'zbekiston — bag'rikeng diyor” mavzusidagi maxsus sessiyasi ham ushbu sanaga bag'ishlandi. Sessiyada mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalar qatori diniy-ma'rifiy jabhada, xususan, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va dinlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlar hamda ushbu yo'nalishdagi islohotlarning mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi. Shuningdek, Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan “Bag'rikenglik haftaligi”dan ko'zlangan asosiy maqsad, rejalashtirilgan keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

— O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Prezidentimiz tashabbusi bilan jamiyatimizda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Bahor XIDIROVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

E'tirofdan baxt tuydim

Baxtiyor ERGASHEV, Respublika perinatal markazining chaqaloqlar neonatal xirurgiyasi bo'limi mudiri, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi:



— Yuksak mukofot bilan taqdirlanganim men uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Ko'p yillik mehnat qadrlangani, e'tirof etilganidan boshim ko'kka yetdi. Yuksalish, baxt hissini tuydim.

Tibbiyot sohasida 35 yildan buyon ishlab kelyapman. Asosan chaqaloqlar salomatligini mustahkamlash bilan shug'ullanaman.

1 yoshgacha bo'lgan bolalarda murakkab jarrohlik amaliyotini o'tkazib, ularni hayotga qaytarishga harakat qilaman. Ishim — hayot-mamot masalasi. Operatsiyadan keyin bolaga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa, holat o'lim bilan yakunlanishi mumkin. Neonatal xirurgiya — bolalar xirurgiyasining eng murakkab

qismi. Yelkamizda juda katta mas'uliyat va javobgarlik bor.

Keyingi yillarda tibbiyotning neonatal xirurgiya yo'nalishida e'tiborga molik o'zgarishlar ro'y berdi. Chunki davr talabi shunday. Soha rivoji katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Zamonaviy tibbiy uskunalar, zarur shart-sharoit bo'lmasa, bu jabhada biror ijobiy natijaga erishish mushkul. Tibbiyot muassasalari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanmogda, xalqaro andazalarga mos davolash uslublari yo'lga qo'yilayotir.

Neonatal xirurgiyada ilgari xayolimizga ham kelmagan jarrohlik amaliyotlarini bajaryapmiz. Masalan, tug'ilganiga endigina bir kun bo'lgan chaqaloqda torakoskopik, laparoskopik, endoskopik usullarda operatsiya o'tkazyapmiz. Prezidentimizning sohaga e'tibori, yuqori texnologik uskunalar va sharoit mavjudligi bizga shunday imkoniyat bermoqda.

Tug'ma qizilo'ngach atreziyasi degan kasallik bor. Yaqin-yaqingacha bu xastalikdan davo topish mushkul bo'lgan. Hozir shu kasallikni davolashda an'anaviy usul bilan birga yangi — torakoskopik operatsiyani amaliyotga keng tatbiq qildik. Muddatidan oldin shu dard bilan tug'ilgan bolalarning yashab qolish ko'rsatkichi ayni paytda 90 foizdan yuqori. Bu — juda katta yutuq. Hatto qo'shni respublikalardan ham bizga ishonch bildirib, murojaat qiluvchilar ko'paymogda va kelib, shifo topmogda. Ko'rsatkichlar esa yildan yilga oshib boryapti.

Ik bor 2022-yilda Respublika perinatal markazi huzuridagi Neonatal xirurgiya o'quv, davolash-metodika markazida Qirg'iziston fuqarolari bo'lgan siam egizaklar muvaffaqiyatli ajratildi. Ikkala qizaloq ham tirik qoldi.

Operatsiya xonasiga bir vujud sifatida olib kirilgan chaqaloqlar ikki mustaqil organizm sifatida olib chiqildi.

Bu yil Chirchiq shahrida joylashgan Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent viloyati filialida yana bir siam egizaklarda nayob operatsiya o'tkazildi. Ularning vujudi qorin sohasida birlashgan bo'lib, bolalar hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan peritonit kasalligi rivojlanishi ehtimoli juda yuqori edi. Muddatidan avval dunyoga kelgan siam egizaklarni tug'uruqdan 9 soat o'tib, shoshilinch, ustiga-ustak, mahalliy sharoitda o'ta murakkab amaliyot orqali ajratib olishga muvaffaq bo'ldik.

Bunday o'ta murakkab amaliyot hamma davlatda ham amalga oshirilavermaydi. Hatto tibbiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda ham uzoq muddatli tahilllar va katta tayyorgarlikdan so'ng bajariladi. Chunki bu — o'ta nayob operatsiya. Mana shunday muddatidan avval tug'ilgan siam egizaklarning shoshilinch hamda viloyat darajasida muvaffaqiyatli ajratib olinishi mamlakatimiz tibbiyoti yangi bosqichga ko'tarilganining yorqin dalilidir.

Ellikdan ortiq shogird tayyorladim. Ularning 20 nafardan ortig'i ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanyapti. O'zbekistonda neonatal xirurglar maktabini tashkil qildik. U Markaziy Osiyodagi eng ilg'or tibbiyot maktabidir. Buni qo'shni davlat mutaxassislari ham e'tirof etmoqda. Safimizga aqlli, bilimli yoshlar kirib kelyapti. Ularni salohiyatli shifokor etib tayyorlashga harakat qilamiz. Rivojlangan mamlakatlarning eng yetakchi klinikalarida stajirovka o'tab kelyapmiz.

Yurtimizda nafaqat neonatal xirurgiya-da, balki kardiologiya, kardioxirurgiya, onkologiya, neyroxirurgiya yo'nalishlarida ham ilg'or texnologiyalar qo'llanyapti. Eng murakkab jarrohlik amaliyotlari bajarilayotir. Bu yurtdoshlarimizning davolanish uchun xorijiy mamlakatlarga borishiga chek qo'yyapti.

Chaqaloqlarda jigar bilan bog'liq kasalliklar uchrab turadi. Kelgusida jigar transplantatsiyasini yo'lga qo'yimoqchimiz. O'sayotgan homiladagi kasallikni aniqlab, uni ona qornida operatsiya qilib, sog'lomlashtirish amaliyoti dunyoda ancha rivojlangan. Bizda ham ana shu amaliyot qo'llanayotgani tibbiyotimizdagi yutuqlardan biridir. Shu yo'nalishni rivojlantirish niyatidamiz.

ko'rsatkich 8-10 foiz kamaydi. Zamonaviy ultratovush apparatlari kirib kelishi anesteziologiya va reanimatsiya sohasida ham regionar anesteziya usullarining yuqori texnologik darajada rivojlanishi va anesteziya bilan bog'liq asoratlarning keskin kamayishiga sabab bo'ldi.

Yutuqlarimizdan, albatta, faxrlanamiz. Bunga o'z-o'zidan erishilgani yo'q. Orta nazar tashlasam, ba'zida yuragim orqaga tortib ketadi. Narkoz va sun'iy nafas berish apparatlari yetishmas, borlari ham juda eskirgan edi. Hamma ish qo'lda bajarilar, dori-darmon yetishmovchiligini aytmasa ham bo'ladi. Hatto operatsiya uchun ishlatiladigan ba'zi dori-darmonlar ta'minoti juda yomon ahvolda edi. Bemorlarning yaqinlari ovoragarchiligini ko'rish oson bo'lmagan. Natijada bemorni operatsiyaga tayyorlash jarayoni bir necha haftaga cho'zilib ketardi. Shukr, bugun tibbiyotga qaratilayotgan e'tibor tufayli barchasi ortda qoldi.

Endi tibbiyotimiz kelajagi to'g'risida o'ylasam, juda shoshilib qolaman. Chunki dunyo tibbiyotiga yuqori texnologik yangiliklar shiddat bilan kirib kelmogda. Hammamiz yaqinda eshitgan yuqori aniqlikda ishlaydigan robot yordamida bajarilayotgan jarrohlik amaliyoti bugun O'zbekistonda ham qilinmogda. Tibbiyotning turli sohalariga yuqori intensivlikda robot texnologiyalari keng kirib kelyapti. O'ylaymanki, yaqin kelajakda bunday aqlli texnologiyalar va sun'iy intellekt anesteziologiyani ham keng qamrab oladi. Bu esa insonning xato qilishiga yo'l bermaydi va davolash sifatining keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Bugun menga berilgan mukofotni kamtarona mehnatimga davlatimiz rahbarining yuksak bahosi deb bilaman. Mazkur mukofotni olishimda men bilan yonma-yon turib mehnat qilayotgan hamkasblarimning katta hissasi bor. Bunday quvonchli voqea mening va jamoamizning ruhiyatini yanada ko'tardi, kelajakka ishonchimizni mustahkamlamogda. Bilim hamda tajribamizni oshirib, xalqimiz salomatligi yo'lida yanada yuqori yutuqlarga erishishga undaydi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

Katta marralarga undaydi

Orifjon AHMADJONOV, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi mudiri, II darajali “Salomatlik” ordeni sohibi:

— Mukofot kichik mehnatlaringa berilgan katta baho. 1995-yilda tibbiyotning anesteziologiya va reanimatsiya yo'nalishida internaturani tamomlagach, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga ishga keldim. O'tgan vaqt davomida ikki yuz mingga yaqin bemorga anesteziologik yordam va intensiv davo choralarini ko'rsatishga erishdik.

Bo'limimiz markazga tushgan og'ir aralash va ko'p sonli jarohat olgan, shuningdek, jarrohlik amaliyotidan keyin qo'shimcha kasalliklari bo'lgan bemorlarda muhim organ va tizimlar faoliyatini tiklash hamda stabilashtirish bo'yicha muolajalar o'tkazish, travmatologik va ortopedik operatsiyalarda zamonaviy anesteziya usullari va operatsiyadan keyingi erta davrdagi intensiv davo choralarini qo'llash bilan shug'ullanib kelmogda. Har yili 10 mingdan ortiq bemorlarga zamonaviy anesteziya turlarini qo'llagan holda jarrohlik amaliyoti va undan keyingi erta davrda og'ir qisqizlantirish muolajalarini o'tkazamiz.

Bundan tashqari, har yili 3000 ga yaqin og'ir bemorga shoshilinch tez tibbiy yordam va intensiv davo choralarini ko'rsatiladi. So'nggi yillarda tibbiyotga qaratilayotgan katta e'tibor va moliyaviy qo'llab-quvvatlov tufayli muassasamiz zamonaviy tibbiy jihozlar bilan to'liq ta'minlandi. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi klinikalarida malaka oshirish imkoniga ega bo'lyapmiz. Chet ellik hamkasblarimiz bilan tajriba almashyapmiz. Xorijlik mashhur shifokorlarning e'tirofi va markazda davolanib, shifo topib borayotgan hamyurtlarimizning minnatdorlik so'zlari shunday deyishimizga asos bo'lmoqda.

Oxirgi yillarda anesteziologiya va reanimatsiya xizmatida jahon standartidagi zamonaviy usullar keng qo'llanishi natijasida bemorlarning reabilitatsiya davri 2-3



barobar qisqardi. Avvallari mamlakatimizda qilinmagan barcha jarrohlik amaliyotlari va anesteziologik usullar hozir to'liq yo'lga qo'yildi. Yirik bo'g'imlardagi endoprotezlash, artroskopik va umurtqa pog'onasidagi endoskopik operatsiyalar shular jumlasidan. Yuqori texnologiyalar qo'llanishi natijasida bunday jarrohlik amaliyotlari soni 10 barobar oshdi. E'tiborga molik jihatlardan yana biri — markazimiz shifokorlari ishtirokida hududlarda mahorat darslari tashkil etib kelinmogda. Bu yuqori texnologik operatsiyalarni hududlarning o'zida bajarish imkoniyatini kengaytirdi. Bemorlarning markazga kelishi 90 foiz qisqardi va ovoragarchiliklarning oldi olindi. Ilgari bunday bemorlar markazga kelish uchun yillab navbat kutar yoki chet elga borib davolanar edi.

Mamlakatimizga zamonaviy ultratovush apparatlarining olib kelinishi ham tibbiyotimiz rivojida keskin burilish yasadi. Joylarda ultratovush tekshiruvlari orqali yangi tug'ilgan chaqaloqlarning chanoq son bo'g'imidagi nuqsonlar etra aniqlana boshlandi. Profilaktika yo'lga qo'yilgani sababli operatsiyalarni 27 foizdan 7 foizgacha tushirishga erishildi. 2000-yillarda markazimizda tug'ma son chiqishi bilan bog'liq operatsiyalar bolalardagi umumiy operatsiyalar sonining 50-60 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-2025 yillarda bu

